

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Andijon viloyat statistika boshqarmasi

2018 yil yanvar-iyul oyida viloyatda bajarilgan

QURILISH ISHLARI

KO'RSATKICHLAR:

*Qurilish-montaj ishlari
hajmi – 1353.4 mlrd.so'm*

*Yirik qurilish-pudrat
tashkilotlari ulushi – 3.1 foiz*


*Kichik korxonalar va
mikrofirmalar ulushi – 58.0
foiz*

*Norasmiy sektorning ulushi
– 38.9 foiz*



2018 yilning yanvar-iyul oyi bo'yicha viloyatda 1353.4 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,5 foizni tashkil etdi hamda 2017 yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 4.4 foiz punktga o'sdi.

Xususan, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 42.4 mlrd.so'mni yoki o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 96.5 foizni tashkil etdi.


Mazkur davrda yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmining kamayishi kuzatildi, ya'ni ular tomonidan 42,4 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati avvalgi yilga nisbatan 96,5 foizni tashkil etdi. Shu jumladan, Andijon shahrida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar hajmi 22,4 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 83,3 foizni tashkil etdi. Jalaququq, Ulug'nor va Qo'rgontepa tumanlaridagi yirik korxonalar tomonidan jami 20,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarildi va o'sish sur'ati 100,0 foizga teng bo'ldi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlarining 58,0 foizini tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,4 foizga teng bo'ldi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun turar joylar qurish, avtomobil yo'llarini yangi qurilishi, rekonstruksiya va ta'mirlash, ijtimoiy soha obyektlari, namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqdalar.



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1319,7 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 107,9 foizini tashkil qildi.



Joriy davrda norasmiy sektorda jami 526,8 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarildi va o'sish sur'ati 101,1 foizni tashkil qildi. Qurilish ishlari hajmining baholash natijalariga ko'ra norasmiy sektordagi qurilish ishlari hajmidan 348,5 mlrd.so'm yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi, 140,0 mlrd.so'm aholi tomonidan qurilgan noturar bino-inshootlar va 38,3 mlrd.so'm aholi tomonidan amalga oshirilgan yakka tartibdagi ta'mirlash ishlari hissasiga to'g'ri keldi.

**O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika
qo'mitasi**

Andijon viloyat statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (0374) 228-29-37